



## XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI Q A R O R I

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: [sirdaryo@exat.uz](mailto:sirdaryo@exat.uz)

2023 - yil 6 - fevral

VI-44-21-9-0-K/23

Sirdaryo viloyati hokimligi

### **Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi va Kengash huzuridagi doimiy komissiyalarning 2023-yilga mo'ljallangan ish rejalarini tasdiqlash to'g'risida**

2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarda belgilangan vazifalardan, viloyatdagi siyosiy partiyalarning deputatlik guruhlarini, doimiy komissiya raislari va a'zolarining takliflarini inobatga olinib, Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi va Kengash huzuridagi doimiy komissiyalarning 2023-yilgi ish rejalarini o'rganib chiqib, muhokamalarda bildirilgan takliflarga asosan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarda belgilangan vazifalar, viloyatdagi siyosiy partiyalarning deputatlik guruhlarini, doimiy komissiya raislari va a'zolarining takliflari inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari viloyat Kengashi va Kengash huzuridagi doimiy komissiyalarning 2023-yilgi ish rejaları ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Kengash kotibiyati mudiri A.Abdurahmonov va Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi barcha doimiy komissiyalar raisi va a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi o'rinbosari**



**M.Xodjiyev**

Xalq deputatlari Sirdaryo  
viloyat Kengashining  
2023 yil 6 fevraldagi  
VI-44-21-9-0-K/23-son qaroriga  
1-ilova

**Xalq deputatlari Sirdaryo viloyat Kengashining 2023-yilga mo'ljallangan  
ISH REJASI**

T/r	Belgilangan chora-tadbirlar hamda sessiyalarda ko'rib chiqiladigan masalalar mazmuni	Belgilangan chora-tadbirlar, axborot, hisobot berish uchun asos	Muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-avgustdagi "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 536-sonli qarori ijrosi yuzasidan Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Sirdaryo viloyati filiali direktori O.Movlonberdiyevning axboroti to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-avgustdagi 536-sonli qarori 3-bandi	Fevral	U.Sotiboldiyev - Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi, O.Movlonberdiyev - Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Sirdaryo viloyati filiali direktori
2.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning viloyat vakili Sh.Alimovning axborotini eshitish	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 17-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2021-yil faoliyati to'g'risidagi hisoboti haqida"gi SQ-502-IV sonli qarori	Fevral	D.Abdullayeva - Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi, Sh.Alimov - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning viloyat vakili
3.	"Sirdaryo viloyati tashkil topganligining 60 yilligi" munosabati bilan olib borilayotgan tayyorgarlik ishlar to'g'risida viloyat hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari hamda mas'ul viloyat korxon va tashkilot rahbarlarining axborotlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasi	Fevral	Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi ishchi guruhi, viloyat hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari, hamda mas'ul viloyat korxon va tashkilot rahbarlar

4.	“Sirdaryo hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” aksiyadorlik jamiyati direktori A.Xaydarovning viloyat aholisini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlari to’g’risida hisoboti	O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunning 24-moddasi	Mart	R.Tursunmurodov - Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko’rsatish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi, A.Xaydarov - “Sirdaryo hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” aksiyadorlik jamiyati direktori
5.	Viloyatdagi moddiy madaniy meros obyektlari va madaniy boyliklarni aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, asrash va ulardan oqilona foydalanish, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining but saqlanish holati yuzasidan viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Isaqulovning hisoboti to’g’risida	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5150-sonli qarori 11-bandi	Mart	M.Ismoilov - Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi, Sh.Isaqulov-viloyat hokimining o‘rinbosari
6.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6074-sonli Farmoni ijrosi to’g’risida	Milliy tiklanish demokratik partiyasi deputatlik guruhining takliflariga asosan	Aprel	Milliy tiklanish demokratik partiyasi deputatli guruhi, R.Tursunmurodov - Sanoat, transport, qurilish, aloqa va aholiga xizmatlar ko’rsatish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi
7.	“Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining Sirdaryo viloyatida ijrosini o‘rganish natijalari to’g’risida	O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunning 24-moddasi ( <i>O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasining 2020-yil 29-iyuldagi 20-sonli qo‘shma qarori</i> )	May	M.Ismoilov - Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi, J.Xasanov - Sirdaryo viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik xizmati
8.	Viloyatda eksport faoliyatini hamda hududlarning tashqi iqtisodiy faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash, hududlarning tashqi iqtisodiy faoliyati bo’yicha mavjud muammolarni bartaraf etish hamda eksport masalalari bo’yicha eshituvlarni bartaraf etish bo’yicha viloyat hokimining o‘rinbosari, investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘i B.Botirovning hisoboti	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-iyuldagi “Eksport hajmining barqaror o‘shirishini ta’minlash va uning nomenklaturasini diversifikatsiyalash bo’yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan parlament so‘rovi natijalari haqida” SQ-572-IV-sonli qarori	May	U.Sotiboldiyev - Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi, B.Botirov - viloyat hokimining o‘rinbosari, investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘i

9.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-sentabrdagi «Yashil bog'lar» va «Yashil jamoat parklari»ni barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida 529-sonli qarori hamda «Yashil makon» umummiy loyahasini amalga oshirish yuzasidan mas'ullarning axborotini eshitib borish	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-sentabrdagi 529-sonli qarori 16-17-24-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalari va ekologiya qo'mitasining 2022-yil 14-dekabrdagi KQ-04/26-102-sonli qo'shma qarori	May, noyabr	O.Begiyev - Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya bo'yicha doimiy komissiyasi, V.Ibadullayev - viloyat hokimining o'rinbosari
10.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2022-yil 13-sentabrdagi SQ-623-IV-sonli qarori ijrosi yuzasidan tasdiqlangan «Yo'l xaritasi» ijrosini tanqidiy muhokama qilish	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2022-yil 13-sentabrdagi «Boyovut, Qarshi, Olot, Bo'ston va To'raqo'rg'on tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida belgilangan chora-tadbirlar ijrosini o'rganish natijalari to'g'risida»gi SQ-623-IV-sonli qarori 14-bandi	Iyun	U.Sotiboldiyev - Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi A.Karimov - viloyat hokimining birinchi o'rinbosari, V.Ibadullayev- viloyat hokimining o'rinbosari, D.O'rolova-Boyovut tumani hokimi
11.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-172-sonli, 2022-yil 25-oktabrdagi 408-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-avgustdagi 435-sonli hamda 2022-yil 2-noyabrdagi 635-sonli qarorlari ijrosi yuzasidan viloyat hokimining o'rinbosari V.Ibadullayevning hisobotini mukokama qilish	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-172-sonli, 2022-yil 25-oktabrdagi 408-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-avgustdagi 435-sonli hamda 2022-yil 2-noyabrdagi 635-sonli qarorlari	Iyun	Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi doimiy komissiya raislari, V.Ibadullayev- viloyat hokimining o'rinbosari
12.	Xalq deputatlari viloyat Kengashi hamda Kengash huzuridagi doimiy komissiyalar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning ijrosi yuzasidan viloyat hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari, viloyat huquqni muhofaza qiluvchi organlari, korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlari hamda tuman va shahar hokimlarining mas'uliyati to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunning 24-moddasi	Iyul	Kengash kotibiyati mudiri A.Abdurahmonov, X.Artukboyeva Kengash huzuridagi Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi, ma'sul rahbarlar

13.	Guliston shahrida bunyod etilishi ko'zda tutilgan "Guliston tibbiyot klasteri" dasturining ijrosini ta'minlash hamda viloyatda farmasevtika sohasida olib borilayotgan ishlar bo'yicha viloyat hokimining tegishli o'rinbosari va viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i hisoboti	O'zLiDP deputatlik guruhining takliflariga asosan	Avgust	M.Ismoilov - Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi
14.	Guliston shahar va Yangiyer shahridagi aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, narx-navolar hamda bozor hududining sanitar holatlari yuzasidan hokimlarning hisoboti	O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasi	Avgust	Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi ishchi guruhi, Guliston va Yangiyer shahar hokimlari, Sanitariya - epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshqarmasi boshlig'i
15.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-sentabrdagi "Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish" loyahasini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-4840-son qarorining viloyatdagi ijrosi yuzasidan "Hududgaz Sirdaryo" gaz ta'minoti filiali direktori J.Xidirovning hisoboti	O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasi	Sentabr	Sanoat, transport, qurilish, aloqa va aholiga xizmatlar ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi - R.Tursunmurodov, "Hududgaz Sirdaryo" gaz ta'minoti filiali direktori - J.Xidirov
16.	Viloyatda "Transport to'g'risida"gi qonun ijrosi yuzasidan viloyat transport boshqarmasi boshlig'i O.Erbekovning hisoboti	O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasi	Oktabr	Sanoat, transport, qurilish, aloqa va aholiga xizmatlar ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi - R.Tursunmurodov, viloyat transport boshqarmasi boshlig'i - O.Erbekov
17.	2023-2024-yillarda viloyatdagi ijtimoiy soha obyektlarining kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan viloyat hokimining o'rinbosari hisoboti	O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasi	Noyabr	Sanoat, transport, qurilish, aloqa va aholiga xizmatlar ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi - R.Tursunmurodov, viloyat hokimining o'rinbosari
18.	Viloyat Bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i M.Muhammadiyevning viloyatda 2023-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash yuzasidan hisoboti	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 27-apreldagi "Hududlarda yangi ish o'rnini yaratish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni o'rganish natijalari to'g'risida"gi KQ-337-IV-sonli qarori	Har oy	U.Sotiboldiyev - Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiyasi, M.Muhammadiyev - viloyat Bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i

19.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-maydagi “2022-2026-yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 242-sonli qaror ijrosini muhokama qilish	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-maydagi “2022-2026-yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 242-sonli qarori 9-bandi	Har oy	Doimiy komissiya raislari, viloyat hokimi o‘rinbosarlari
20.	Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari-jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i U.Mavlonovning viloyatda jamoat xavfsizligini ta‘minlash borasidagi ishlar, jamoat xavfsizligini ta‘minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti	“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunning 25 <sup>2</sup> -moddasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda gi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-sonli farmoni 6-bandi	Har oy	D.Abdullayeva - Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi, U.Mavlonov- viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari – jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i
21.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda gi “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-43-sonli qarorining ijrosi yuzasidan viloyat hokimining o‘rinbosari V.Ibadullayevning hisoboti	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda gi “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-43-sonli qarori 9-band	Har oy	R.Tursunmurodov - Sanoat, transport, qurilish, aloqa va aholiga xizmatlar ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi, V.Ibadullayev - viloyat hokimining o‘rinbosari

22.	<p>Viloyatda yo'llarning holati va mavjud infratuzilma, avariya o'choqlari, qoidabuzarliklarning tahlilidan kelib chiqib, harakat xavfsizligi, transport va yo'l sohalariga mas'ul idoralar rahbarlarining faoliyatini tanqidiy o'rganish, natijalari bo'yicha mas'ullarning hisobotlarini eshitish</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190 sonli qarori 9-bandi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 12-iyuldagi "2020-2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummilliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-316-sonli qarori 3-bandi</p>	<p>Har oy, Har chorakda</p>	<p>D.Abdullayeva - Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi, Sh.Islomov - viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i, komissiya kotibi, Z.Umarov- Viloyat Avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi boshlig'i v.b</p>
23.	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli Farmoni hamda 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasi gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan viloyat hokimining o'rinbosari N.Tojiboyevaning hisoboti</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-sonli qarori hamda Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida 2022-yil 1-mart kuni o'tkazilgan 18-sonli bayoni</p>	<p>Har chorakda (aprel, iyul, oktabr)</p>	<p>S.Elmuradov - Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi N.Tojiboyeva - viloyat hokimining o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i, boshqa mutasaddi rahbarlar</p>
24.	<p>Sirdaryo viloyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar holatini o'rganish natijalari to'g'risida viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari D.Abduraxmonov hisoboti</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 16-fevraldagi kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 15-sonli bayoni, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli Farmoni, 2021-yil 28-iyul PQ-5200-sonli qaror hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasining 2022-yil 21-dekabrda 166-sonli qarori, 2023-yil 13-yanvardagi 168/11-19-sonli qo'shma qarori 7-bandi</p>	<p>Har chorakda (aprel, iyul, oktabr)</p>	<p>O.Begiyev - Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya bo'yicha doimiy komissiyasi, D.Abduraxmonov - viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari</p>

25.	Xalq ta'limi tizimini isloh qilish hududiy dasturda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan mas'ul rahbarlarning hisoboti	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-241-sonli qarori hamda 2022-yil 3-fevraldagi PF-22-sonli farmoyish	Har chorakda (aprel, iyul, oktabr)	M.Ismoilov - Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi, Sh.Zayniddinov - viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, O.Donaboyev - viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi
26.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori ijrosi yuzasidan viloyat hokimining o'rinbosari Sh.Zayniddinovning hisoboti	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori 9-bandi	Har chorakda (aprel, iyul, oktabr)	M.Ismoilov - Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi Sh.Zayniddinov – viloyat hokimining o'rinbosari
27.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-iyuldagi PQ-5198-sonli va 2022-yil 16-iyundagi PQ-283-sonli qarorlari ijrosi bo'yicha viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i R.Yuldashevning hisoboti	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-iyuldagi PQ-5198-sonli va 2022-yil 16-iyundagi PQ-283-sonli qarorlari, Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 5-may kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 38-sonli bayoni	Har chorakda (aprel, iyul, oktabr)	M.Ismoilov - Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi, R.Yuldashev - viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i
28.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6275-sonli farmoni bo'yicha viloyat komissiyasining faoliyati yuzasidan komissiya a'zolarining axborotini eshitish	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6275-sonli farmoni 5-bandi	Har chorakda (aprel, iyul, oktabr)	S.Elmuradov - Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi, Sh.Normatov - Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati mudiri
29.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sirdaryo viloyatidagi xalq qabulxonasi rahbari X.Qo'ldoshevning sektorlar va hududdagi tashkilotlar rahbarlari faoliyati, murojaatlar bilan ishlash holati yuzasidan axborotini eshitib borish	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5633-sonli Farmoni 2-bandi va 19-fevraldagi PQ-4197-sonli qarori 2-bob 5-band	Har chorakda (aprel, iyul, oktabr)	D.Abdullayeva - Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi, X.Qo'ldoshev - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sirdaryo viloyatidagi Xalq qabulxonasi mudiri

30.	Viloyatda davlat byudjeti va mahalliy byudjet daromadlari prognoz ko'rsatkichlarining ijrosi to'g'risida viloyat Moliya bosh boshqarmasi boshlig'i F.Kushakovning hisoboti	O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi	Har chorakda ( <i>aprel, iyul, oktabr</i> )	U.Sotiboldiyev - Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi, F.Kushakov - viloyat Moliya bosh boshqarmasi
31.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining parlamentga yo'llagan murojaatnomasidan kelib chiqib, 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" Davlat dasturida belgilangan vazifalar 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlaridagi vazifalarning bajarilishi bo'yicha viloyat hokimi o'rinbosarlarining hisobotlarini eshitish	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2022-yil 4-fevraldagi SQ-475-IV sonli qarori	Har chorakda ( <i>aprel, iyul, oktabr</i> )	Doimiy komissiya raislari, viloyat hokimi o'rinbosarlari
32.	Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i S.Djabarovning viloyatda jinoyatchilikning va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning profilaktikasi holati to'g'risidagi hisoboti	O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 25 <sup>2</sup> -moddasi	Har chorakda ( <i>aprel, iyul, oktabr</i> )	D.Abdullayeva - Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi S.Djabarov - viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i
33.	Viloyatda fuqarolar huquqlari va erkinliklari, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari, qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishni amalga oshirishga doir faoliyati to'g'risida Sirdaryo viloyati sudi va viloyat ma'muriy sudi raislarining axboroti haqida	O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasi	Har yarim yilda ( <i>iyul</i> )	D.Abdullayeva - Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi, viloyat sudi va ma'muriy sudi raislari
34.	Viloyatda norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati yuzasidan viloyat Adliya boshqarmasi boshlig'i S.Sattarovning axborotini eshitish	O'zbekiston Respublikasi "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi Qonunning 25 <sup>3</sup> -moddasi	Har yarim yilda ( <i>iyul</i> )	D.Abdullayeva-Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi, S.Sattarov-viloyat Adliya boshqarmasi boshlig'i
35.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6118-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan Majburiy ijro byurosi Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i E.Xolmatovning hisoboti	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6118-sonli Farmoni 4-bandi	Har yarim yilda ( <i>iyul</i> )	D.Abdullayeva - sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi, E.Xolmatov - Majburiy ijro byurosi Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i

36.	Viloyat prokuraturasining 2023-yil davomida qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyati to'g'risida hisoboti	O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasi	Har yarim yilda (iyul)	D.Abdullayeva - Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi, Sh.Aminov - viloyat prokurori
-----	---	--	------------------------	--

**Izoh:** Xalq deputatlari viloyat Kengashining ish rejasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masala Xalq deputatlari viloyat Kengashi raisining, doimiy komissiyalar va Kengash deputatlarining taklifiga binoan sessiyada ko'rib chiqilgandan so'ng, belgilangan tartibda o'zgartirish kiritish, shuningdek, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasiga asosan mahalliy Kengash ijroiya hokimiyati bo'limlari, boshqarmalari, boshqa tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini, shu jumladan, qonunlarga rioya etilishi, mahalliy Kengash qarorlarining va doimiy komissiyalar tavsiyalarining bajarilishi yuzasidan hisobotlarini eshitish vakolatiga ega, shu bois hududdagi mavjud holatlarni inobatga olgan holda ish rejaga boshqa idora va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish hamda siyosiy partiyalarning takliflariga asosan boshqa masalalar ham kiritish mumkin.

**Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining 2023-yilga mo'ljallangan ISH REJASI**

№	Tadbirlar nomi	O'tkazish muddati	Tadbirlarni amalga oshirish shakli	Mas'ul ijrochilar
1.	1. Doimiy komissiyaning 2023-yil ish rejasini belgilash va tasdiqlash uchun Xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasiga taqdim etish. 2. Doimiy komissiyaga doir masalalarni doimiy komissiya majlislarida ko'rib chiqish uchun tayyorlash bo'yicha doimiy komissiya huzurida soha bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan mutaxassislardan iborat ekspertlar guruhi tarkibini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun Kengash muhokamasiga kiritish	Yanvar	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya raisi va a'zolari
2.	Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i T.Shomirovning "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining Sirdaryo viloyatidagi ijrosi yuzasidan hisobotini eshitish to'g'risida	Fevral	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya a'zolari (S.Yariyev) va komissiya huzuridagi ekspertlar guruhi, Pensiya jamg'armasining Sirdaryo viloyati boshqarmasi

3.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-iyuldagi SQ-572-IV-sonli qarori yuzasidan viloyatning Xovos va Sardoba tumanlarida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tuman hokimlarining hisoboti to'g'risida	Mart	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya, Investitsiya Sirdaryo viloyati boshqarmasi
4.	Sirdaryo viloyati mahalliy byudjetining 2023-yil birinchi choragidagi ijrosi to'g'risida viloyat Moliya bosh boshqarmasi boshlig'i F.Kushakovning axborotini ko'rib chiqish va sessiya muhokamasiga kiritish	Aprel	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya a'zolari (A.Bobobekov) va komissiya huzuridagi ekspertlar guruhi, viloyat Moliya bosh boshqarmasi
5.	Markaziy bank Sirdaryo viloyati bosh boshqarmasida "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi va "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining ijro holatini o'rganish	May	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya a'zolari (A.Bobobekov) va komissiya huzuridagi ekspertlar guruhi, Markaziy bank Sirdaryo viloyati bosh boshqarmasi
6.	Mirzaobod va Sardoba tumanlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-noyabrdagi "Sirdaryo viloyatida aholi bandligini ta'minlash va daromadini ko'paytirish, shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlaridan samarali foydalanishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-431-sonli qarori ijrosini o'rganish va muhokama qilish	Iyun	Xalq deputatlari Mirzaobod va Sardoba tumanlari Kengashi sessiyasiga kiritish	Doimiy komissiya raisi va a'zolari hamda Mirzaobod va Sardoba tumanlari Kengashi
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-sentabrdagi "Soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5837-sonli Farmonining viloyatdagi ijrosi yuzasidan viloyat Soliq boshqarmasi boshlig'i J.G'oirovning hisobotini eshitish	Iyul	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya va viloyat Soliq boshqarmasi
8.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 13-sentabrdagi "Boyovut tumani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida belgilangan chora-tadbirlar ijrosini o'rganish natijalari to'g'risida"gi SQ-623-IV-sonli qarori ijrosi yuzasidan	Avgust	Xalq deputatlari Boyovut tuman Kengashi sessiyasiga kiritish	Doimiy komissiya a'zolari (A.Bobobekov) va komissiya huzuridagi ekspertlar guruhi, tuman Kengashi doimiy komissiyalari
9.	Viloyatda mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va byudjet harajatlarini maqsadli sarflanishi holatini o'rganish va tahlil etish. Byudjetdan tashqari va maqsadli fondlardan oqilona foydalanish holatini o'rganish	Sentabr	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya a'zolari (A.Bobobekov) va komissiya huzuridagi ekspertlar guruhi, viloyat Moliya bosh boshqarmasi, tuman va shahar Kengashi doimiy komissiyalari
10.	Sirdaryo viloyati mahalliy byudjetining 2023-yil uchinchi choragidagi ijrosi to'g'risidagi viloyat Moliya bosh boshqarmasi boshlig'i F.Kushakovning axborotini dastlabki tarzda ko'rib chiqish va sessiya muhokamasiga kiritish	Oktabr	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya a'zolari, komissiya raisi o'rinbosari S.Yariyev

11.	Mahalliy byudjet daromadlari bajarilishi holati, qo'shimcha rezervlarni aniqlash bo'yicha qilingan ishlar, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kesimida byudjetga hisoblangan va amalda to'langanligi, ular bo'yicha soliq qarzdorligi yuzasidan Sirdaryo viloyati davlat soliq boshqarmasi boshlig'ining hisoboti	Har chorakda	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya va viloyat Soliq boshqarmasi
12.	Doimiy komissiya faoliyati va majlislarini OAV, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish	Yil davomida	-	Doimiy komissiya raisi va a'zolari
13.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi tomonidan yuborilgan qonunlarning xalq deputatlari mahalliy Kengashlari huzuridagi mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyalar muhokamalarini tashkil etish	Yil davomida	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya raisi va a'zolari hamda boshqa doimiy komissiyalar bilan hamkorlikda
14.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlarida, Hukumat qarorlari va bayonlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash hamda hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish, infratuzilma obyektlarini qurish hamda aholi turmush farovonligini oshirish maqsadida viloyat mahalliy byudjetining 2023-yil ijrosi davomida shakllangan qo'shimcha manbalari hisobidan mablag'larni yo'naltirish to'g'risida	Yil davomida	Doimiy komissiya yig'ilishi	Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha tuman va shahar doimiy komissiyalari bilan hamkorlikda
15.	Sirdaryo viloyati mahalliy byudjetining 2023-yilda kutilayotgan ijrosi va 2024-yil byudjet parametrlarini tasdiqlash to'g'risida viloyat Moliya bosh boshqarmasi boshlig'i F.Kushakovning axborotini eshitish.	Dekabr	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya a'zolari (A.Bobobekov) va komissiya huzuridagi ekspertlar guruhi, viloyat Moliya bosh boshqarmasi

## Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasining 2023-yilga mo'ljallangan

### ISH REJASI

№	Tadbirlar nomi	O'tkazish muddati	Tadbirlarni amalga oshirish shakli	Mas'ul ijrochilar
1.	Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uning 2023-yildagi amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"dan kelib chiqqan holda Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining ish rejasi asosida doimiy komissiyaning ish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash	Yanvar	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya raisi va a'zolari

2.	Jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, huquqbuzarlikka va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2022-yilda amalga oshirilgan ishlari hamda 2023-yilga rejalashtirilgan vazifalari to'g'risida Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i S.Djabarovning hisobotini eshitish	Yanvar	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya va viloyat Ichki ishlar boshqarmasi
3.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha (Ombudsmanning) Sirdaryo viloyatidagi mintaqaviy vakilining 2023-yildagi faoliyati to'g'risida hisobotini eshitish	Fevral	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya va Ombudsmanning Sirdaryo viloyatidagi mintaqaviy vakili
4.	"Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining Sirdaryo viloyatidagi ijrosi hamda 2023-yilda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida viloyat Bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i M.Muhammadiyevning axborotini eshitish	Aprel	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya va viloyat Bandlik bosh boshqarmasi
5.	Xalq deputatlari viloyat Kengashi hamda Kengash huzuridagi doimiy komissiyalar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarining ijrosi yuzasidan viloyat hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari, viloyat huquqni muhofaza qiluvchi organlari, korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlari hamda tuman va shahar hokimlarining mas'uliyati to'g'risida	May	Xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasi muhokamasiga kiritish	D.Abdullayeva - Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi, X.Artukboyeva Kengashi huzuridagi Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi
6.	Viloyatda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar holati yuzasidan deputatlik nazoratini ko'chaytirish, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim va qurilish sohalarida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik bo'yicha olib borilgan ishlar to'g'risida viloyat prokurorining axborotini eshitish	Iyun	Doimiy komissiya yig'ilishi	Doimiy komissiya va viloyat prokuraturasi
7.	O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni doirasida barcha turdagi dorixonalar tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarning ahvoli to'g'risida Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi viloyat boshqarmasi rahbarining hisobotini eshitish	Iyul	Doimiy komissiya yig'ilishi (qo'shma yig'ilish)	Doimiy komissiya va Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi viloyat boshqarmasi
